
Farg'ona shahar hokimligida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni yuzasidan targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Farg'ona viloyati filiali tashabbusi bilan Farg'ona shahar hokimligi binosida shahardagi barcha davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan rahbar hamda mas'ul xodimlar ishtirokida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Farg'ona viloyati filiali rahbari o'rinbosari A.Akbarov uzoq kutilgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi, mazkur qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, vazifalari aniq belgilab berilganligi ta'kidlandi.

Targ'ibot guruhi tomonidan tadbir ishtirokchilariga qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng targ'ib qilishga qaratilgan tadqiqot orqali tushunchalar berildi.

Tadbir davomida ishtirokchilar Qonunga doir o'zlarining qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.

2022-08-17 15:06:24